

## JISMONIY TARBIYA SOHASI MUTAXASSISLARI KASB MAHORATINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION JIHATLARI

Abdimannob Muxidinov

*Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan qator islohotlar zamirida xalqning turmush tarzini yaxshilash, aholining barcha qatlamlarida ma'nan va jismonan sog'lom muhitni yaratish, salomatlikni mustahkamlash g'oyasi yotibdi. Shu bois ayni paytda jismoniy tarbiya va sportga e'tibor davlat ahamiyatiga molik muhim ijtimoiy-siyosiy vazifa aylangan.*

*Maqolada jismoniy tarbiya sohasi mutaxassislari kasb mahoratini rivojlantirishning innovatsion jihatlari tadqiq etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *tarbiya, jismoniy tarbiya, jismoniy madaniyat, sport, innovatsiya, valeologiya.*

Jamiyatimizda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda o'z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuyg'ularini kamol toptirish, shuningdek, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish ishlarini tizimli tashkillashtirish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xalqimizning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida jismoniy madaniyat va sport sohasi eng muhim o'rin egallaydi. Jismoniy madaniyat va sport ijtimoiy soha sifatida insonlarni jismonan, ma'nan va ruhan etuk, komil shaxs etib tarbiyalasa, iqtisodiy jihatdan esa ishlab chiqaruvchi sub'ektlar, ya'ni insonlarni salomatliklarini hamda yuqori ish qobiliyatlarini tiklash va mustahkamlash orqali mamlakatimizning ishlab chiqarishini hamda iqtisodiyotini rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadi.

O'zbekistonda mustaqillik davrida jismoniy tarbiya va sport sohasining rivojlanishi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarning samarali natijasidir. Mamlakatimiz qudratini belgilaydigan eng asosiy omillardan biri bu shu yurtda yuksak ma'naviyatli, jismonan va ruhan sog'lom, har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalash masalasidir. Ma'naviy barkamol va jismoniy sog'lom insonni tarbiyalashning muhim vositasiga aylangan sport olimpiya go'yalari va olimpiya qadriyatlarini keng targ'ib etishga xizmat qilmoqda. Jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk, yuksak intellektual salohiyat, zamonaviy bilimlarga ega, mustaqil fikrlaydigan, kelajakka ishonch bilan qaraydigan barkamol avlodni tarbiyalash asosiy vazifalar sifatida belgilandi. Bu yo'nalishdagi ishlar talaba-yoshlarda zamonaviy dunyoqarash, ularning ongiga vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, o'z Vatanga xizmat qilish kabi yuksak tuyg'ularni kamol toptirishga qaratilgan. Jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirishga qaratilgan amaliy ishlar natijasida, milliy

ta'lim dasturiga binoan jismoniy tarbiya va sport sohasiga yuksak intellektual salohiyatga ega bo'lgan, yuqori malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlash ishlari yo'lga qo'yildi.

Boshqaruv qandaydir tizimning faoliyat yuritishini saqlab turishga yoki yaxshilashga qaratilgan (ko'pgina mumkin bo'lganlari orasida tanlab olingan) ta'sir vositalarni amalga oshirish sifatida qaraladi. Jismoniy tarbiyada bu - boshqaruv sub'yektining uning ob'ektiga bo'lgan maqsadli, rejalashtirilgan va doimiy axborot ta'siridir. Bunda ob'yektda sodir bo'ladigan o'zgarishlarga muntazam ravishda tuzatishlar kiritib boriladi. Biroq tuzatish bosim o'tkazish emas, balki boshqarilayotgan tizimdagi joriy o'zgarishlarni mumkin qadar maksimal darajada hisobga olish, ularni foydali natijaga erishishga yo'naltirish.

Jismoniy tarbiya va sport boshqaruvi mutaxassislari kasb mahoratini rivojlantirishning konseptual modelini ishlab chiqishda biz boshqaruv sub'yektining o'zining tizimli tabiatidan - jismoniy tarbiyaning keng ko'lamlı sohasidan kishilarning sifatlar va hususiyatlarni takomillashtirishga bo'lgan manfaatlariga xizmat qiluvchi, jismoniy va ma'naviy rivojlanish uyg'unligini ta'minlovchi uning moddiy hamda ma'naviy elementlaridan kelib chiqdik.

Hozirgi zamon jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasida faol yondashuv nazariyasi metodologik tamoyil sifatida XX asrning 70-yillari oxiridan qo'llanila boshlandi. Ushbu nazariya doirasida faoliyat dinamik tizim bo'lib, uning parametrlari doimiy ravishda o'zgarib turadi. U aniq - ravshan asoslangandir. Asosning yo'qolishi faoliyatni oddiy, asoslanmagan harakatga aylantiradi. Faoliyatli yondashida bir-biriga (to'g'ridan-to'g'ri va teskari aloqalar bilan) o'zaro bog'liq bo'lgan uchtasi bir hisoblangan psixofiziologik asos - ehtiyojlar, dalillar va manfaatlarga doimiy tayanish ta'kidlanadi. Faolili yondashuvda dalillarning saqlab qolish yo'nalishi ikkita bir-biriga o'zaro bog'liq tomonlarga ega.

Ulardan biri dalillarning dinamik barqarorligini, ikkinchisi ularning konservativligi, qat'iyligini (regidligini) aks ettiradi. Ushbu bayon qilinayotgan yo'nalishning ikkinchi tomoni faoliyat sub'ektida aks etmay iloji yo'q: sub'ekt ko'rsatma, harakat dasturi asoslari bilan qat'iy qayd qilingan ko'r-ko'rona ijrochiga aylanib qolishi mumkin.

Yakuniy natijaga yo'naltirilgan ko'rsatmaning faoliyatli tahlili ko'rsatmaning faoliyat motivlarini barqarorlashtirish mexanizmi sifatida bosqichma-bosqich tabiati to'g'risidagi farazning paydo bo'lishiga olib keladi. Faoliyatning, kamida uchta tarkibiy darajasi ajratilgan: ma'noli, maqsadli va muolajaviy. Ko'rsatmaning ajratib ko'rsatilgan faoliyatining tarkibiy elementlarini barqarorlashtiruvchi mexanizmi, shubhasiz, ijobiy hodisadir. Biroq faoliyatli yondashuvda, birinchi navbatda, shu tarkibiy elementlarining doimiy o'zgaruvchanligiga tayanish zarur.

Rahbarning ijtimoiy muhitning zamonaviy tasavvurlari va ehtiyojlariga javob beradigan asosiy boshqaruv vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Loyihalash - oldindan ko'ra bilish - jamiyat ehtiyojlariga javob beradigan, taraqqiyot etgan bozor yo'nalishida rivojlanayotgan boshqariladigan tizimning rivojlanish dinamikasi asosiy yo'nalishlarini aniqlash.

2. Dalilli - ma'rifiy - boshqaruv ob'ektlarining samarali faoliyatini, rag'batlantirish, ularning bilish faolligini kasbiy sohadagi yangi bilimlarni olishga bo'lgan intilishini oshirish.

3. Tashkiliy - maqsadli faoliyat, u boshqaruv vazifalarining hal etilishini ta'minlaydi.

4. Kommunikativ - axborotli - kommunikation aloqalarni tuzilma holiga keltirish va saqlash, zarur axborotni qayta o'zgartirish hamda kadrlarga jo'natish.

Professionalning har bir vazifasida individual-shaxsiy faoliyat uslubi kuzatiladi va agar mutaxassisning ishbilarmonlik sifatlarini kasbga xos muhim sifatlarning birinchi guruhiga shartli ravishda kiritish mumkin bo'lsa, unda ikkinchi guruhiga (aniqrog'i ikkinchi yarmiga) individual - shaxsiy sifatlari kiradi.

Boshqaruv sohasi xodimining kasbga xos muhim shaxsiy sifatlari orasida tahlil qilish qobiliyati, muammoli fikrlash, qabul qilinadigan qarorlarning yaqin orada va kelajakdagi oqibatlarini ko'ra bilishi, ularni tezkor ravishda tuzatish qobiliyati katta ahamiyatga ega.

Kasbiy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni oshirishga albatta muhtoj bo'lgan mutaxassislar sonining kamayishi o'ta shaxsiy da'vogarlikdagi farqlardan dalolat beradi. Tajribaga qadar kimni kasb mahorati darajasi qoniqtirmagan bo'lsa, ulardan bir qismi to'liq qoniquvchilar toifasiga o'tdi (11,4%). Bunday kamayishni boshqacha ta'riflash ham mumkin: kasb mahorati darajasini oshirish yuzasidan ishlab chiqilgan shart-sharoitlarning amalga oshirilishi ijobiy natijalar bergan.

Boshqaruv bo'g'ini mutaxassisining kasbiy bilimdonligida quyidagi elementlarni ajratish mumkin:

- a) maxsus faoliyatga bog'liq bilimdonlik;
- b) ijtimoiy-kommunikativ bilimdonlik;
- v) shaxsiy bilimdonlik;
- g) ixtisosiy-kasbiy bilimdonlik.

Yaxlit kasbiy mustaqil rivojlanish, pedagogik faoliyat va boshqaruv qarorlarini qabul qilish erkinligi bu erda bilimdonlikning maxsus turlari qo'shilib ketgan kasb egasig tariqasida qatnashadi.

Biz jismoniy tarbiya mutaxassisining kasbiy darajasini oshirishning metodik shart-sharoitlari (koordinatalari) jismoniy tarbiya ta'limi tizimida ishlagan mutaxassisning kasbiy bilimdonligini oshirishning asosiy yo'nalishlari to'g'risidagi qoidalarni ishlab chikdik.

Jismoniy tarbiya va sport boshqaruvi sohasidagi mutaxassisning kasb mahoratini rivojlantirishning konseptual modeli dasturiy - maqsadli, rag'batlantiruvchi-ichki moyillik, oldindan belgilash tarkiblarini o'z ichiga oladi.

Yaxlit kasbiy mustaqil rivojlanish, pedagogik faoliyat va boshqaruv qarorlarini qabul qilish erkinligi bu erda bilimdonlikning maxsus turlari qo'shilib ketgan kasb egasi tariqasida qatnashadi.

Biz jismoniy tarbiya mutaxassisining kasbiy darajasini oshirishning metodik shart-sharoitlari (koordinatalari) jismoniy tarbiya ta'limi tizimida ishlagan mutaxassisning kasbiy bilimdonligini oshirishning asosiy yo'nalishlari to'g'risidagi qoidalarni ishlab chiqdik.

Loyihalash - oldindan ko'ra bilish moduliga mutaxassisning kasbiy faoliyatidagi o'sishni loyihalash hamda bashorat qilish bilan bog'liq bo'lgan konseptual model elementlari kiritilgan. Me'yoriy - buyruqli modul me'yoriy hujjatlar va yo'riqnomalar bilan boshqariladigan kasbiy faoliyat turlarini o'z ichiga oladi. Kasbiy bilimdonlik moduli kasb egasining ijro vazifalari bilan bog'liq bo'lgan sifatlarni birlashtiradi.

1. Rahimov M., Qulto'rayev B. Boshlangich sinflarda jismoniy tarbiyani o'qitish nazariyasi va metodikasi. Toshkent, 2001y.
2. To'xtaboyev N.T. Jismoniy tarbiya mutaxassislarini kasbiy mahoratini rivojlantirish. Toshkent, 2010 y.
3. Каримова, Г. Й. (2021). АХЛОҚ-МАЪНАВИЙ ТАХДИДЛАРГА ҚАРШИ КУРАШНИНГ МАФКУРАВИЙ УСУЛИ СИФАТИДА. *Экономика и социум*, (6-1 (85)), 707-710.
4. Karimova, G. (2022). CORRUPTION: ITS HISTORICAL ROOTS AND WAYS TO COMBAT IT. *Research Focus*, 1(4), 267-272.
5. Каримова, Г. (2022). МАЪНАВИЯТ ВА МИЛЛИЙ ТАРБИЯ. *Экономика и социум*, (3-2 (94)), 612-615.
6. Bakhrom, B. (2022). Information technologies in physical culture and sports. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(10), 288-292.
7. Bakhrom, B. (2022). PRIORITIES FOR THE DEVELOPMENT OF PHYSICAL EDUCATION AND PHYSICAL CULTURE. *Research Focus*, 1(4), 190-194.
8. Botirov, B. (2023). SPORTCHILARNING MAXSUS TAYYORGARLIKLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISHNING ANAMIYATI. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 14, 312-318.
9. Ботиров, Б. М. (2022). СПОРТНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ВА СОҒЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ АҲАМИЯТИ. *Research Focus*, 1(4), 222-229.
10. Botirov, B. M. (2021). The Endurance Quality Of Swimmers Enhancement Methods. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(07), 59-63.
11. Mukhidinov, A. (2023). PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN THE FIELD OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS. *Research Focus*, 2(2), 54-58.
12. Mukhidinov, A. (2023). THE IMPORTANCE OF PHYSICAL EXERCISES IN THE DEVELOPMENT OF MASS SPORTS AND THEIR CLASSIFICATION. *Research Focus*, 2(2), 37-40.
13. Muxidinov, A. (2023). VALEOLOGIYA VA YOSH AVLOD. *Ilm-fan va ta'lim*, 1(5).
14. Muhidinov, A. (2023). VOLEYBOL O'YININIG QOIDALARI. *Talqin va tadqiqotlar*, 1(23).
15. Имомова, Н. А. (2020). Молодежные перспективы в занятости узбекистана. In *НАУКА И ТЕХНИКА. МИРОВЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ* (pp. 117-119).
16. Imomova, N. A., & Toxirova, D. A. Q. (2022). ЎЗБЕКИСТОНДА ЁШЛАРНИ БАНДЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ МАСАЛАЛАРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 23), 740-748.
17. Имомова, Н. А. (2022). МАМЛАКАТИМИЗДА МЕХНАТ МИГРАЦИЯСИ ТИЗИМИНИ РАҚАМЛАШТИРИШ. *Academic research in educational sciences*, 3(4), 1093-1102.

18. Sanjar, U., & Abdubannob, M. (2022). NATIONAL SPORTS GAMES. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876, 16(10)*, 109-117.
19. G'Oynazarov, G. (2022). JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA O'QITISH METODLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH. *Экономика и социум, (6-2 (97))*, 71-74.
20. Goynazarov, G. (2022). THE MAIN ASPECTS OF THE FORMATION OF PHYSICAL CULTURE IN THE EDUCATIONAL PROCESS. *Research Focus, 1(4)*, 312-315.
21. Goynazarov, G. (2022). Development of Movement Qualities in Children. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2(04)*, 42-47.
22. Гойназаров, Ф. А. (2021). Кичик Мактаб Ёшдаги Болаларга Бериладиган Ҳаракатли Ўйинлар. *Scientific progress, 2(1)*, 202-211.
23. Yuldashov, I., & Goynazarov, G. (2021). A need to improve the institutional system for increasing the social activity of young people at the stage of development. *Интернаука, (12-3)*, 18-19.
24. Kozixodjaev, J. X. (2023). OLIY TA'LIM TIZIMIDA TA'LIM BILAN TARBIYANING MUTANOSIBLIGINI TA'MINLASH BORASIDAGI MUAMMOLAR. *INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022, 2(18)*, 19-23.
25. Yuldashov, I., Umaralievich, K. U., Goynazarov, G., & Abdurakhmonov, S. (2021). Innovative development strategy in the field of sports and the basics of its organization. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 11(11)*, 48-53.
26. Karimova, G., & Makhamadaliev, L. (2022). The importance of innovative ideas in increasing the effectiveness of education. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12(6)*, 143-148.
27. Teshaboev, M., & Karimov, U. (2022). THE ROLE OF ETHICAL EDUCATION IN INCREASING THE EFFICIENCY OF EDUCATION. *Oriental Journal of Social Sciences, 2(02)*, 32-43.
28. Karimov, U., Karimova, G., & Makhamadaliev, L. (2022). The role and significance of spiritual values in youth education. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12(2)*, 181-185.
29. Karimov, U. U., & Karimova, G. Y. (2021). The importance of innovative technologies in achieving educational effectiveness. *Журнал естественных наук, 1(1)*.
30. Ummatqulov, T. (2022). INSON SOG'LOM BO'LISHIDA VALEOLOGIYA FANINING AHAMIYATI. *Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture, 2(12)*, 80-88.